

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 11

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Kucharov Jamshid Qulnazarovich

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) 11-14

Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ 15-23

Ҳамаев Нодирбек Мўминович

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) 24-32

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI 33-36

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ 37-42

Артикбаев Ойбек Салимахамаатович

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 43-56

Atavullayeva Shaxlo Musoyevna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Қўчқаров Файзулло Абдужабборович

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 63-70

Shao Junling

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

Ashirov Nurmurod Qulmatovich

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI 77-82

Togayev Salim Sobirovich

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI 83-89

Саттаров Ғанижон Озодович

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI	293-299

Xandamova Marifat Akramovna
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

Teshaboev Muhiddin Marifovich
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING
 MAQSADI 305-311

Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
 TIZIMIDAGI O’RNI 312-320

Talapov Baxriddin Alijanovich
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL
 XUSUSIYATLARI 321-326

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

Olga Filippova
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION 333-345

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH
 MASALALARI 346-351

Narzieva Gulnoza Akbarovna
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI 352-357

Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING
 QO’LLANILISHI 358-362

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ 363-371

Атаев Шокир Куранбаевич
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ 372-377

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ
 ХУСУСИДА 378-385

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI	479-484

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH VA NAMOYISH ETISH	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O‘QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA‘LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	519-525

08.00.00- Иқтисодиёт фанлари

Aziza Umarova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti

**AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI
MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti orqali moliyaviy resurslarni shakllantirishning xorij tajribasini tadqiq qilishda sohaga tegishli tadqiqotlar o'rganilgan. Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti bo'yicha AQSh fond bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar tahlil qilingan hamda kompaniya uchun IPO amaliyotining SWOT tahlili amalga oshirilgan. Tahlil asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: aksiya, moliyaviy resurs, aksiyalarni ommaviy joylashtirish, IPO, investitsion jozibadorlik, bozor kapitallashuvi.

Aziza Umarova

Associate Professor of Kimyo International University in Tashkent

**FOREIGN EXPERIENCE OF ATTRACTING FINANCIAL RESOURCES THROUGH INITIAL
PUBLIC OFFERING (IPO) OF STOCKS**

Abstract. In this article, researches related to the field is learnt in the study of the foreign experience of the formation of financial resources through the practice of initial public offering of stocks. The operations carried out in the US stock market regarding the practice of initial public offering of stocks are analyzed and SWOT analysis of the IPO practice is carried out for the company. Relevant conclusions are formed based on the analysis.

Keywords: stock, financial resource, public offering of stocks, IPO, investment attractiveness, market capitalization.

Азиза Умарова

Доцент Ташкентский Международный Университет Кимё

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ЧЕРЕЗ ПЕРВИЧНОЕ
ПУБЛИЧНОЕ РАЗМЕЩЕНИЕ (IPO) АКЦИЙ**

Анотация. В данной статье исследования связаны с изучением зарубежного опыта формирования финансовых ресурсов посредством практики первичного публичного размещения акций. Проанализированы операции, проводимые на фондовом рынке США в отношении практики первичного публичного размещения акций, и проведен SWOT-анализ практики IPO компании. На основе анализа формируются соответствующие выводы.

Ключевые слова: акции, финансовый ресурс, публичное размещение акций, IPO, инвестиционная привлекательность, рыночная капитализация.

Kirish. Iqtisodiyotni rivojlantirishda aksiyadorlik jamiyatlarining o'rnini inobatga olgan holda aytish lozimki, bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish, faoliyatni diversifikatsiyalash hamda istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Milliy amaliyotimizda aksiyadorlik jamiyatlari aksariyat hollarda tashqi moliyaviy resurslarni shakllantirishda qarz mablag'lariga tayanadi, biroq xalqaro fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti kapital jalb qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli milliy amaliyotimizda aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish operatsiyalarini samarali tashkil etish hamda xorij tajribasining o'ziga xos jihatlarini milliy amaliyotga tatbiq etish lozim. Mazkur jihatlar aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti orqali moliyaviy resurslarni shakllantirishning xorij tajribasini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotining moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan. A.Gutterman fikricha, "moliyalashtirish yangi biznesni tashkil etish, yangi mahsulot yoki xizmatni ishga tushirish hamda mavjud biznesni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda hatto eng kichik biznes ham, dunyoning qayerida faoliyat yuritishidan qat'i nazar, kapitalning keng doiradagi potensial manbalaridan birini tanlashi mumkin. Biroq, aksariyat hollarda, tanlov kompaniyaning rivojlanish bosqichi va kelajakda biznesning kutilayotgan o'sish potentsiali bilan belgilanadi. Kompaniyalar ko'pincha kompaniyaning kapital xarajatlarini boshqarish va uning pul oqimlari samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan muqobil moliyalashtirish strategiyalaridan foydalanadilar. Ba'zi hollarda kapitalni oshirish kompaniyalardan moliyaviy vositachilarni jalb qilish bilan bog'liq ma'lum xarajatlarni talab qiladi" [1]. Kompaniyalar rivojlanishi uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash joiz.

X.Feng, A.Johansson va D.Wei tomonidan IPO kompaniyalarining ayrim jihatlarini ta'kidlab o'tilgan. "Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti kompaniyani birinchi marta keng investorlar guruhiga taklif etadi. IPO kompaniyalari ko'pincha yosh, hali yuqori darajada rivojlanmagan va nisbatan shaffoflik past bo'lgan kompaniya bo'lganligi sababli investorlar uchun riski yuqori bo'ladi. Shu sababli investorlar uchun IPO kompaniyalari aksiyalarining haqiqiy qiymatini baholash qiyin hisoblanadi" [2]. IPO amaliyotini o'tkazmoqchi bo'lgan kompaniyalar aksiyalarining bozor bahosining shakllanishini to'g'ri prognoz qilishi IPOning qanchalik muvaffaqiyatli tashkil etilishini ko'rsatib beradi.

"Aksiyalar kompaniyada uzoq muddatli kapital jalb qilishning eng muhim manbasidan biri hisoblanadi. Xususi kapital kompaniyani yaratish uchun zaruriy shartdir. Aksiyalarni chiqarish orqali mablag'larni jalb qilishning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

- aksiyalar yuqori daromad olish uchun riskni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan investorlar uchun mos keladi;
- aksiyadorlarga dividendlar to'lash majburiy emas. Shuning uchun kompaniyada bu borada hech qanday majburiyat mavjud emas;
- xususi kapital kompaniyaning kreditga layoqatliligini va bo'lajak kredit beruvchilarga ishonchni ta'minlaydi;
- mablag'lar kompaniyaning aktivlariga hech qanday to'lov kiritmasdan, aksiyalarni chiqarish orqali jalb qilinishi mumkin;

- aksiyadorlarning ovoz berish huquqi tufayli kompaniya boshqaruvi ustidan mustaqil nazorat ta'minlanadi" [3]. Kompaniyalar faoliyatida aksiyalarning afzalliklarini inobatga olgan holda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish, aksiyalarning ijobiy jihatlaridan unumli foydalanish lozim.

M.Ilbasmis ta'kidlashicha, "IPOdagi aksiyalar bahosining past bo'lishi to'rtta asosiy jihatlarga, ya'ni assimetrik ma'lumotlar, institutsional tushuntirishlar, kompaniya bo'yicha egalik qilish va nazorat qilish masalalari hamda kelgusida rivojlanish yo'nalishlariga bog'liq bo'lishini ta'kidlash mumkin. Aksariyat hollarda assimetrik ma'lumotlar emitentlar va investorlar o'rtasidagi axborotlar assimetriyasi, emitentlar va anderrayterlar o'rtasidagi axborotlar assimetriyasi va investorlar o'rtasidagi axborot assimetriyasi kabi ko'rinishlarda tarqalishi hamda IPO orqali jalb qilinadigan kapital hajmining kamayishiga ta'sir qilishi mumkin" [4]. IPO amaliyotiga tayyorgarlik ko'rishda kompaniyalar axborot siyosatini to'g'ri tashkil etish hamda axborotlar assimetriyasining oldini olishga alohida e'tibor qaratish zarur.

S.Elmirzayev IPO amaliyotiga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va bosqichlarini to'g'ri tashkil etishga e'tibor qaratgan. "Puxta tayyorgarlik muvaffaqiyatli IPO uchun har tomonlama asos vazifasini o'tab beradi. Ichki tayyorgarlik ta'minlanib, tegishli hamkorlar bilan kelishilgach, qaysi birjaga chiqish tanlangan holda har tomonlama asosli aksiyalar narx diapazonini belgilashga e'tibor qaratiladi. Aksiyalarga bitta investor tomonidan ariza berish bo'yicha miqdor chegarasini belgilash ham mazkur jarayonda muhimdir. Shuningdek arizalar qabul qilish vaqtini iqtisodiyotning joriy holatidan kelib chiqqan holda belgilash lozimligini shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim" [5].


"Birlamchi ommaviy taklifni tashkil etish katta kuch, xarajat va samarali boshqaruvni talab qiladi. IPOni amalga oshirish uchun kompaniya ko'plab yuridik, buxgalteriya va biznes masalalarini aniqlash, tahlil qilish va hal qilish uchun yuridik maslahatchilar, auditorlar va anderrayterlar bilan yaqindan hamkorlik qilishi kerak. Ushbu jarayonda aniqlanishi va baholanishi lozim bo'lgan bir qator jihatlar mavjud" [6]. IPO amaliyotini o'tkazish maqsadida kompaniya uzoq muddat davomida tayyorgarlik ko'rishi hamda tayyorgarlik jarayonida investitsion vositachilarni tanlashga alohida yondashishi zarur.

B.Boyev fikricha, "fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO, SPO) amaliyotlarini tashkil etish orqali katta miqdorda kapital jalb qilish, aksiyalar narxining oshishiga erishish, investitsion jozibadorlikni oshirish, o'zining xalqaro imijini shakllantirish kabi ijobiy jihatlarga erishishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, bu jarayonni samarali tashkil etilishida moliyaviy maslahatchi va anderrayter sifatida tanlangan institutsional investorlarning ham ahamiyati yuqoriligini e'tirof etishimiz lozim" [7]. IPO orqali erishish mumkin bo'lgan ijobiy natijalar IPO jarayonining murakkabliklariga ijobiy yondashishga turtki beradi, deyish mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, milliy amaliyotimizda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni shakllantirishda IPO amaliyotidan foydalanishni kengaytirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti orqali moliyaviy resurslarni shakllantirishning xorij tajribasini tadqiq qilishda ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, taqqoslama tahlil, SWOT tahlil, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar. Xalqaro amaliyotda aksiyalarni ommaviy joylashtirish orqali kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish keng tarqalgan amaliyotlardan hisoblanadi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish orqali kapital jalb qilish amaliyoti bank kreditlariga nisbatan bir qator ijobiy jihatlarga ega ekanligi sababli aksariyat mamlakatlarda ommalashgan. Bir vaqtning o'zida katta hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyati mavjudligi, belgilangan davrda jalb qilingan moliyaviy resurslarni qaytarish majburiyatining mavjud emasligi, aksiyadorlik kapitalining diversifikatsiya qilinganligi hisobiga korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish imkoniyatining mavjudligi kabilar aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotining ijobiy jihatlardan hisoblanadi.



1-rasm. AQSh fond bozorida amalga oshirilgan IPO operatsiyalari soni [8]

Xalqaro amaliyotda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti rivojlangan mamlakat sifatida AQSh tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. AQSh fond bozoriga e'tibor qaratilsa, IPO operatsiyalari soni yillar kesimida turlicha bo'lganligini ko'rish mumkin (1-rasm). 1-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2000-2022-yillarda IPO operatsiyalari soni xalqaro moliyaviy inqiroz yillarida ancha past bo'lgan. 2008-yilda AQSh fond bozorida IPO operatsiyalari soni 62 tani tashkil etgan va tahlil qilingan yillar orasida eng past ko'rsatkichni

qayd etgan. 2021-yilda esa mazkur ko'rsatkich 1035 tani tashkil etgan hamda eng yuqori natijaga erishgan.



2-rasm. 2020-2022-yillarda oylar kesimida AQSh fond bozorida IPO operatsiyalari soni taqqoslama tahlili [8]

2-rasmda 2020-2022-yillarda AQSh fond bozorida IPO operatsiyalari soni oylar kesimida tadqiq qilingan bo'lib, tahlil qilingan yillarda kompaniyalar tomonidan IPO amaliyotlarini tashkil etishda faollik eng yuqori bo'lgan oylar sifatida yanvar, fevral, iyun va iyul oylarini alohida ta'kidlash mumkin. 2020-yilda oktyabr oyi, 2021-yilda mart oyi hamda 2022-yilda yanvar oyida kompaniyalar boshqa oylarga nisbatan faol bo'lgan. Faollik eng past bo'lgan oylar sifatida 2020-yilda mart oyi, 2021-yilda avgust oyi hamda 2022-yilda noyabr oyini aytib o'tish joiz.

1-jadvalda 2023-yil aprel oyida AQSh fond bozorida o'tkazilgan IPO operatsiyalari tahlil qilingan. Mazkur oyda jami 15 ta IPO operatsiyalari o'tkazilgan hamda mazkur kompaniyalar aksiyalari kursi IPO amaliyotidan keyin turlicha ko'rinish olgan. Shuningdek, IPO operatsiyalarini o'tkazgan kompaniyalar aksiyalarining IPO kursi barchasida 10 AQSh dollaridan past ekanligini ham aytib o'tish lozim.


1-jadval

2023-yil aprel oyida AQSh fond bozorida o'tkazilgan IPO operatsiyalari tahlili [8]

№	IPO sanasi	Tiker	Kompaniya nomi	IPO narxi (1 dona aksiya)	Joriy narxi (1.05.2023 holatiga)	Farq (foizda)
---	------------	-------	----------------	---------------------------------	--	------------------

1.	Apr 28, 2023	TRNR	Interactive Strength Inc.	\$8.00	\$6.84	-17.38%
2.	Apr 21, 2023	AACT	Ares Acquisition Corporation II	\$10.00	\$10.12	1.20%
3.	Apr 21, 2023	JYD	Jayud Global Logistics Limited	\$4.00	\$3.71	-5.25%
4.	Apr 20, 2023	UCAR	U Power Limited	\$6.00	\$5.26	-12.33%
5.	Apr 20, 2023	USGO	U.S. GoldMining Inc.	\$10.00	\$9.85	-7.06%
6.	Apr 20, 2023	WLGS	Wang & Lee Group, Inc.	\$5.00	\$2.17	-56.20%
7.	Apr 18, 2023	TCJH	Top KingWin Ltd	\$4.00	\$5.26	35.75%
8.	Apr 18, 2023	TPET	Trio Petroleum Corp.	\$3.00	\$2.10	-31.67%
9.	Apr 14, 2023	GDTC	CytoMed Therapeutics Pte. Ltd.	\$4.00	\$3.52	-12.50%
10.	Apr 13, 2023	VCIG	VCI Global Limited	\$4.00	\$2.55	-31.50%
11.	Apr 12, 2023	GDHG	Golden Heaven Group Holdings Ltd.	\$4.00	\$4.20	2.25%
12.	Apr 5, 2023	ARBB	ARB IOT Group Limited	\$4.00	\$3.78	2.50%
13.	Apr 4, 2023	ISPR	Ispire Technology Inc.	\$7.00	\$8.66	25.00%
14.	Apr 4, 2023	MGIH	Millennium Group International Holdings Limited	\$4.00	\$2.50	-52.50%
15.	Apr 3, 2023	MWG	Multi Ways Holdings Limited	\$2.50	\$1.36	-19.60%

3-rasmda IPO amaliyotlarining SWOT tahlili amalga oshirilgan bo'lib, IPO operatsiyasining kuchli va kuchsiz tomonlari, yuzaga keladigan imkoniyatlar hamda xavf-xatarlar aks ettirilgan.



3-rasm. IPO amaliyotining SWOT tahlili [7]

IPO amaliyotining kuchli tomonlari sifatida yirik miqdorda kapital jalb qilish, aksiyalar kapitali orqali likvidlikni oshirish, kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirish, bozor kapitalizatsiyasini oshirish imkoniyatlarini ta'kidlab o'tish lozim (3-rasm). Kuchsiz tomonlari sifatida axborotni ommaviy ravishda oshkor qilish, emissiya xarajatlari yuqoriligi, jarayonning murakkabligi kabilarni aytish lozim. Yuzaga keladigan imkoniyatlar sifatida uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarni amalga oshirish, raqobatbardosh bo'lish kabilarni ta'kidlansa, xavf-xatarlar sifatida aksiyalarning kutilganidan past baholanishi, kompaniyaning boshqa yirik kompaniyalar tomonidan qo'shib olish ehtimolining mavjudligi kabilarga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti orqali moliyaviy resurslarni shakllantirishning xorij tajribasini tadqiq qilish asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, fond bozorida aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyotlarini tashkil etish orqali katta miqdorda kapital jalb qilish, aksiyalar narxining oshishiga erishish, investitsion jozibadorlikni oshirish, o'zining xalqaro imijini shakllantirish kabilarga erishish mumkin.

Ikkinchidan, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishda tayyorgarlik jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonda fond bozorida ko'p yillik tajriba hamda ijobiy imijga ega bo'lgan investitsion vositachilarning xizmatlaridan foydalanish aksiyalarni birlamchi joylashtirish amaliyotining muvaffaqiyatli o'tishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishda kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Dividend siyosatini samarali tashkil etish, foydani taqsimlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kabilarga kompaniya tomonidan e'tibor qaratilishi investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kompaniya aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishda SWOT tahlilni amalga oshirishi, risklarni baholashi hamda bozorda talabni shakllantirib borishi zarur.

Adabiyotlar//Литература/References:

1. Alan S. Gutterman. Financing Activities for Businesses. // SUSTAINABLE ENTREPRENEURSHIP PROJECT, October 2022. - 24 p.
2. Xunan Feng, Anders C. Johansson, Dengxi Wei. Judging a book by its cover: Analysts and attention-driven price patterns in China's IPO market. // Pacific-Basin Finance Journal, Volume 78, April 2023
3. SOURCES OF BUSINESS FINANCE. // BUSINESS STUDIES, CHAPTER 8, 2019-20. - 196-197 pp. http://accioneduca.org/admin/archivos/clases/material/sources-of-financing_1563992424.pdf
4. Metin İlbasmış. Underpricing and aftermarket performance of IPOs during the Covid-19 period: Evidence from Istanbul stock exchange. // Borsa Istanbul Review, Available online 30 January 2023
5. Элмирзаев С. ХАЛҚЧИЛ IPO ҚАНДАЙ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ЎТКАЗИЛИШИ КЕРАК? //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 116-121.

6. Kurbonov J., Omonov S., Khamzaev K. PRACTICES OF PUBLIC OFFERING OF STOCKS IN CAPITAL MARKET DEVELOPMENT: FOREIGN EXPERIENCE AND SPECIFICATIONS //International Finance and Accounting. – 2022. – Т. 2022. – №. 1. – С. 15.
7. Б.Ж.Боев. Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. // Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, 2021. – 12 б.
8. <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> - Stock Analysis fond bozori ma'lumotlarini taqdim etuvchi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).